



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

TIL ELNING BORIDUR...

“Davlat tili haqida”gi qonun amaliyotida uchraydigan achinarli holatlar haqida

Jo‘liboy ELTAZAROV*

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasida 1993-yilgi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunni hayotga joriy etish bo‘yicha o‘sha yillarning ijtimoiy, siyosiy va geopolitik realliklari ta‘sirida bo‘lsa kerak, o‘tgan daslabki o‘n yilliklar ichida jiddiy va azm-qarorli siyosat yuritilmadi. Binobarin, bu yozuvga to‘la o‘tish butun jamiyatimiz miqyosida, afsuski, amalga oshmadi. Ushbu holat, tabiiyki, aholining ba‘zi qatlamlarida xavotirlik tuyg‘ularini uyg‘ota boshladi, chunki, jamiyatdagi katta avlod va yosh avlod orasida yozuvdan foydalanish masalasidagi farqliliklar o‘rtaga chiqqan boshladi. Ta‘lim sifatida tushish yuz berdi.

Ana shu holatlarning natijasi o‘laroq, hayotning turli sohalarida – ishlab chiqarishda, xizmat ko‘rsatishda, millionlab insonlarning kundalik hayotida duch keladigan sog‘liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish sohasida davlat tilini noto‘g‘ri qo‘llash xavfli ijtimoiy illatga aylana boshladi. Ushbu maqolada ushbu masalalar haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: lotin yozuvi, krill yozuvi, “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun, xizmat ko‘rsatish, meditsina, farmasevtika sohalari, muammolar va yechim.

Language Is the Essence of a People

On the unfortunate situations that arise in the application of the Law

“On the State Language”

Abstract

The implementation of the 1993 Law “On the introduction of the Uzbek alphabet based on the Latin alphabet” in the Republic of Uzbekistan was influenced by the social, political and geopolitical realities of those years. Accordingly, no serious and decisive policy has been carried out in recent decades. Therefore, a complete transition to this script on the scale of our society, unfortunately, has not been realized. This situation, naturally, began to cause a feeling of anxiety among some segments of the population, since differences in the use of writing between the older and younger generations in society began to appear. There was a decline in education.

As a result of these circumstances, the improper use of the state language in various spheres of life – in manufacturing, services, healthcare, trade, and public

* Filologiya fanlari doktori, professor. Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, juliboy2@gmail.com

catering — which millions of people encounter in their daily lives, has become a dangerous social vice. This article examines these issues.

Keywords: Latin script, Cyrillic alphabet, Law “On the Introduction of the Uzbek Alphabet Based on the Latin Script”, services, medicine, pharmaceutical industry, problems and solutions.

1.

Har yili Davlat tili bayrami arafasida qalbmni quvonch bilan birga bir ajib huzn egallaydi... Buning sababi har bayram oldidan shu ona tilimiz oldidagi farzandlik burchimizni qanday bajarayotganimizni taroziga solib ko‘raman. Til millatning ma‘naviy vatanidir, chunki. Shu qutlug‘ yurt fizikaviy-geografik jihatdan bizga kindik qoni to‘kilgan Vatan bo‘lsa, o‘zbek tili ma‘naviy vatanimizdir. Biz kindik qoni to‘kilgan ona yurt oldida qanday burchdor bo‘lsak, ma‘naviy Vatan oldida ham ana shunday javobgarmiz. Zero, mustaqil Vatanimizning hech bir qonunining ijrosi “Davlat tili haqida”gi Qonunning hayotga joriy qilinishidek og‘riqli, hayajonli va ...sust bormagan va bormayapti... Uni “o‘gay bolalarning” so‘zda ona tilim desalar-da, boshqa davlat tilini unga teng darajadagi maqom berish “tashabbuslari” bilan chiqishi bir taraf, davlat tilining qonuniy maqomiga bepisand qaraydiganlarning qiliqlari bir taraf, har odimda uchraydigan lisoniy saviyasizlik, tilni buzish, uni bemehrlik bilan kunlik muomalada qo‘llash boshqa taraf. Bu hollarni o‘zbekchani ona tilim deydigan har bir farzand qalb prizmasidan o‘tkazadi, albatta.

Haqiqatan ham, afsuski, “Davlat tili haqida”gi Qonun va uning mantiqiy davomi bo‘lgan lotin yozuviga o‘tish haqidagi qonun bu hujjat qabul qilingandan keyin o‘tgan dastlabki o‘n yilliklarda siyosiy elitaning bir Shimolga, bir G‘arbga qarab hadiksirashi, istaksizligi natijasida o‘n yillar davomida tugal ijro etilmadi. O‘zi “qonun” degan tushunchaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri qat’iyatlilikdir. Qat’iyati bor ekan – u qonun kuchlidir. Qat’iy nazoratini yo‘qotgan qonun zaiflashadi. Bu hol qonunga itoatsizlikni keltirib chiqaradi. Fuqarolarning qonunga rioya qilish immunitetini susaytiradi. Bunday qonunni amalga oshirish ham imkonsiz bo‘lib qoladi. Qat’iyatsizlik rahna solsa, qonun ustuvorligi tantana qilolmaydi. Shu jihatdan keyingi yillarda o‘tkazilgan ayrim tashkiliy-huquqiy tadbirlar shundoq ham qator moddalari ishlamayotgan “Davlat tili haqida”gi Qonunning nufuziga ijobiy ta’sir etmadi.

2004-yil 30-aprel kuni davlat tili haqidagi qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Unga binoan, yangi o‘zbek lotin alifbosi va imlo qoidalariga to‘liq, uzil-kesil o‘tish muhlari 2005-yildan 2010-yilga ko‘chirildi. Ushbu o‘zgartish 1995-yil 21-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga mohiyatan zid edi. Chunki u asosiy ikki maqsadni ko‘zlagan edi: “davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tilishini

ta'minlash". Oradan to'qqiz yil o'tib, keskin ravishda besh yil orqaga sakrash ana shu "izchil joriy etish" va yangi yozuvga "mukammal o'tish" jarayonlarini sezilarli darajada sekinlashtirdi. Aslida, bunga hayotiy zarurat bormidi? Qonun amaliyoti izchil davom etardi. Maktab ta'limi bosqichma-bosqich lotin yozuviga o'tib bo'lgandi, respublikaning barcha jamoalaridagi fuqarolar yangi imloga davlat tomonidan bepul o'qitib-o'rgatilgandi. Mantiqan endi amaliyotga to'liq o'tish va lotin yozuvida savodxonlikni oshirishga kirishish mumkin edi.

Oradan roppa-rosa o'ttiz yil o'tib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ayni muddao bo'ldi. Farmonga muvofiq, 21-oktabr – "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Departamentning asosiy vazifalaridan biri davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratini joriy etishdan iborat (O'zR VMning 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son Qarori).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi Farmoniga ko'ra, "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahriri ishlab chiqiladi, shuningdek, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish bo'yicha Atamalar komissiyasi tashkil etiladi. Shu bilan birga, 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi ishlab chiqiladi. Bunda, davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish kabi yo'nalishlar qamrab olinadi (2019.21.10, PF-5850-son).

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganining o'ttiz oltinchi yilini qutlayotgan ekanmiz, ona tilimizni tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichlarida kutib turgan ijtimoiy-lisoniy tahdidlar haqida ham to'xtalib o'tish o'rinlidir. Bu xususda haqiqatlarni chekilmasdan so'zlash aynan bizning, milliy ziyolilarning burchidir. Har bir millat o'z ziyolilari oldiga eng oydin, o'qimishli va ko'zi ochiq ijtimoiy guruh sifatida ma'lum bir ijtimoiy vazifalarni yuklaydi. Bulardan birinchisi – ona tilimizni qo'rish, asrash, unga yaqinlashayotgan tahdidlar xususida ochiqcha so'zlash va bong urishdir.

2.

Tillarning yo'qolib ketishini globallashtirish jarayonlari va urbanizatsiya hodisasining kuchayishi bilan bog'lashmoqda. Ulardan ham ko'ra ortiqroq omil bu – ilm-fan, texnika rivojidir. Biror-bir millatning o'z tilida zamonaviy texnologiyalar yaratilmasa, u ilm-fan tiliga aylanmasa, o'sha xalqning turmushiga yangi texnologiyalar qatori begona tillar kirib kelaveradi. Milliy til esa o'z qo'llanish doirasini toraytirib, "oshxona, choyxona tili" maqomiga tushib boraveradi. Hozir

dunyoda faqat 50 ga yaqin tillarda yangi texnologiyalar yaratiladi va olimlarning fikricha, XXI asrning oxirigacha mana shu tillargina keng kommunikatsiyada saqlanib qoladi, boshqa tillar esa faqatgina “uy, oila, oshxona tili”ga aylanadi (Bromham, L., Dinnage, R., Skirgård, H, 2022, 163–173). (Hozirda buning ba’zi nishonalarini ko‘rib turibmiz, G‘arb ishbilarmonlari bilan tashkil etilgan qo‘shma korxonalarda ingliz, rus kapitali bilan qurilgan shirkatlarda rus; turk biznesi bilan yuritilayotgan qo‘shma korxonada turk tili faol qo‘llanmoqda). “Lyuboy biznes xorosha” qabilida ish yuritayotgan bu qo‘shma korxonalar uchun o‘zlari rizqini topayotgan mamlakatning davlat tilining hech qiymati yo‘q, O‘zbekistondagi xo‘jalik subyektlari bilan tuzilayotgan xalqaro shartnomalar bir tilda (inglizcha) yoki ikki begona tilda (ruscha, inglizcha) tilda tuzilayotgani va ular tegishli qaydlardan o‘tib, yuridik kuchga ega bo‘layotgani Adliya vazirligi, Tashqi savdo va investitsiyalar vazirligining nahotki e’tiborini tortmayotgan bo‘lsa? Bahonalar ham tayyor: tarjimon yo‘q, mutaxassis yo‘q, u yo‘q, bu yo‘q... Afsuski, bu e’tirozlarda ham jon bor. Ta’lim tizimimizning hozirgi paytdagi nochor ahvoli milliy tilning obro‘yi o‘sishiga va uning jamiyatdagi o‘z ustuvor o‘rnini qonuniy ravishda egallashiga monelik qilmoqda.

Bu hol bizga yana bir marta ta’limdagi islohotlarni yanada kuchaytirish va uni tezroq dunyo standartlariga ko‘tarish lozimligini eslatadi. Chunki rivojlangan ta’lim tizimi bo‘lmasdan, milliy tilda na zamonaviy texnologiyani, na da texnologik tilni shakllantirib bo‘ladi. Ana shu sabablar tufayli hozirda Yevropa tillarining (rus va ingliz tillari) rad etib bo‘lmaydigan obro‘si o‘zbek tili rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

O‘zbek tilining rivojiga va amal qilinishiga to‘siq bo‘layotgan yana bir sabab, keyingi o‘ttiz yil ichida o‘zbek adabiy tilining o‘zbek shevalari bilan aloqasi “uzilgani”, tilimiz o‘zi uchun kerakli so‘z va ifodalarni faqat chet tillardan olayotganidir. Sheva va adabiy til o‘rtasiga o‘tib bo‘lmas devorni kim, qachon tiklaydi?! O‘zbek shevalari adabiy tilning bitmas-tuganmas bulog‘i ekani amalda isbotlanganida edi, jamiyatdagi juda ko‘p ijtimoiy-ma’naviy illatlar, eng muhimi, mahalliychilik chuqur ildiz otmagan bo‘lar edi. Millat sifatida uyushmaganimizning asosiy sabablaridan biri ham so‘zlarimizning umumiy mulkka aylanmaganida. Shevalarni mensimaslik, adabiy tilning bebaho boyish xazinasini tan olmaslik fenomeni asosida ham ana shu hol yotibdi (Toshboyev O., <https://oyina.uz/uz/article/628>).

Zotan, ziyolilarimiz va farzandlarimiz chet tillarga chechan, xorijiy so‘zlarning asliniyam biladi, ammo ona tilining jozibasini, uning tirikligini ta’minlab turgan xalqona so‘zlarni bilmaydi. Holbuki, o‘zbek xalq shevalarida ruh bor, hayot nafasi ufurib turadi, u milliy tilimizning jonli shakli, axir! Keyingi paytda o‘zbek shevalarini o‘rganish va uning boyliklarini to‘plash va nashr qilib borasida birmuncha

ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biz o'zbek tilshunoslari va o'zbek intelligentsiyasi zamonaviy tushunchalarni ifodalash uchun shevalarning boyligini adabiy tilga transformatsiya qilishni uddasidan chiqolmadik.

3.

Ma'lumki, tillarning aloqasi natijasida ko'pincha interferensiya hodisasi ro'yobga chiqadi, ya'ni bilingvlar yoki polingvlar nutqida, ular birdan ortiq til bilan yaxshi tanishligi natijasida til me'yorlariga bo'ysunmaslik va undan chetga chiqish holatlari yuz beradi. Bir tilning struktur-semantik unsurlarini, grammatik xususiyatlarini boshqa tilga to'g'ridan to'g'ri ko'chirishga asoslanuvchi interferensiya hodisasi jamiyatda lisoniy-kommunikativ axborot almashuv kuchaygan sari, davlatlar, millatlar, etnik guruhlar o'rtasida lingvomadaniy aloqalar kuchaygan sari tobora rivojlanmoqda hamda nutqiy amaliyotdan keng o'rin olmoqda. Bu jarayon eng eski davrlardan beri ozmi-ko'pmi uchrab kelayotgan bo'lsa-da, u 20-asrdagi iqtisodiy-siyosiy, etnosiyosiy, madaniy-lingvistik aloqalar tufayli misli ko'rilmagan ko'lamlarga erishdi hamda milliy tillar taraqqiyotiga xavf solish darajasiga yetdi.

Zero, hozirgi o'zbek jamiyatida turli tillarda so'zlashuvchilar so'zlashadigan tillarning funksional sohalari davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan o'rganilishi, vaqt o'tgan sayin intensivlashib borayotgan lisoniy munosabatlardagi tendensiyalarni baholash va boshqarish jihatidan ham muhimdir. Oxirgi 170 yil mobaynida Markaziy Osiyoda ikki yirik etnik guruh – turkiy xalqlar va ruslar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, kundalik hayot va boshqalar asosida faol aloqalar o'rnatildi. Bu aloqalarning lingvistik plandagi natijalari rus tili orqali so'z olish, turli fan sohalarga oid tushuncha apparati hamda terminlarni o'zlashtirish kabi tillararo aloqalar uchun normal bo'lgan holatlar bilan bir qatorda kalkalash va interferensiya orqali yuz berdi (keyingi 15-20 yil ichida bu noxush hol qisman ingliz va turk tillarining o'zbek tiliga ta'sirida ham ko'rilmogda).

O'zbek tilining davlat tili va o'zbek jamiyatidagi asosiy kommunikativ vositasi sifatidagi maqomiga fonetik interferensiya tufayli vujudga kelgan va tobora ommalashayotgan fonetik normalardan chekinish hamda tovushdan tortib gapgacha bo'lgan lisoniy birliklarni noto'g'ri talaffuz qilish xavf solmoqda, deyish mumkin. Xususan, o'zbek va rus tillarining fonetik tizimi, jumladan, undoshlar tarkibi o'rtasidagi farqlar ularni nutq jarayonida biri o'rniga boshqasini qo'llash aslo aloqalarlashuv (kommunikatsiya) talablariga va ehtiyojlariga javob bermaydi. Mutlaqo boshqa artikulyatsion – talaffuz mexanizmi tillararo aloqa va interferensiya hozirgidek davom etsa, yaqin kelajakda o'zbek tilining fonetikasini jiddiy zararlashi va uning azaldan o'ziga xos bo'lgan artikulyatsiya usulini ham o'zgartirib yuborishi mumkin.

Zero, har bir tilning artikulyatsion bazasi tovush apparatining tarixiy evolyutsiyasi natijasida shakllanadi. Ona tilimizning artikulyatsion bazasi nafaqat

o'zbek tilining talaffuz qobiliyatini, balki til egasi bo'lmish kishilarimizning fonematik-eshituv qobiliyatini ham shakllantiradi. Shu kabi rus tili artikulyatsion tizimi ham faqat uning o'ziga xos xususiyatdir, deyish mumkin. O'zbek va rus tillarining artikulyatsion asoslarining "to'qnashuvi" natijasi aksent sifatida o'rta chiqadi. Aslida muayyan til egasining nutqida boshqa til talaffuzining o'rta chiqishi ana shu nomunosibliklarning natijasidir (Rasulova I., 2020, 196-203).

Nutqiy interferensiya u yoki bu ikki tilli shaxs nutqidagi alohida norma hamda grammatik qoidalaridan chekinishni ifodalasa, tildagi interferensiya ana shu individual interferentiv lisoniy belgilarning tilda to'plana borishi hamda ularning zamon o'tishi bilan norma shaklini olishi demakdir. Bu hol esa ayni paytda tilshunoslar tarafidan "lisoniy siljish" (Eng. *Language shift* /Rus. *Языковой сдвиг*) deb atalgan noxush til bilan bog'liq hodisaning vujudga kelganidan darak beradi. Ya'ni, kuchli interferensiya izlari bo'lgan tillarda "raqobatchi til" mahalliy tilning nafaqat so'z boyligiga ta'sir qiladi, balki grammatik va fonologik tizimlarini ham jiddiy "jarohatlaydi" (Kantarovich, va b., 2021).

4.

Yuqorida eslatilgan "lisoniy siljish"ning yaqqol namunasi bugungi kunda keyingi yillarda chet tillardan tarjima qilinayotgan texnologik-tibbiy va boshqa hayotiy muhim sohalarga oid hujjatlarda ham istar-istamas interferentiv tarjima namunalari paydo bo'ldi, ya'ni tarjimalar sifatsiz, original tilning qoliplariga ko'ra termin, ifoda, jumla qo'llangan hamda qurilgan holda amalga oshirilmoqda. Original til (rus tili, ingliz tili, turk tili)dagi oziq-ovqat, dori va uy-xo'jalik mollarning qo'llanish instruksiyalarida, ta'rifnomalarida, yo'riqnomalarida bu holni yaqqol ko'rinish mumkin.

Interferensiyada ma'lum bir tilning grammatik xususiyatlarini boshqa tilga avtomatik ko'chirish bilan xarakterlangani uchun bunday holat aholi salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq hollarda, ya'ni chet elda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmonlarning ishlatilishi va qo'llanishida savdo yorliqlari, yo'riqnoma hamda boshqa instruktiv hujjatlarni o'zbek tiliga tarjimasida mavjud bo'lishi – yo'l qo'yib bo'lmaydigan holatdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuniga asosan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 10/2-son, Sog'liqni saqlash vazirligining 3-son, Davlat bojxona qo'mitasining 2003-yil 14-yanvardagi 01-02/16-4-son "Davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan iste'mol tovarlarini markalash va bojxonada rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 10/4-son, Sog'liqni saqlash

vazirligining 5-son, Davlat bojxona qo‘mitasining 2003-yil 10-martdagi 01-02/16-17-son “Davlat tilida markirovka qilinishi shart bo‘lgan iste‘mol tovarlarini markalash va bojxonada rasmiylashtirish qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarorlari qabul qilingan. Bu qonun hamda me‘yoriy hujjatlarga ko‘ra mamlakatda tayyorlanayotgan yoki import qilinayotgan har bir oziq-ovqat mahsuloti haqida xaridor hamda iste‘molchiga davlat tilida to‘la axborot berilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5303-sonli Farmonida esa yangi shart-sharoitlarda oziq-ovqat va dori-darmon xavfsizligini yanada oshirish yo‘l-yo‘riq va choralari belgilanib berilgan. Ushbu o‘rinli va qonuniy talablarga ko‘ra tegishli ma‘lumotlarning barchasi davlat tilida, uning fonetik, morfologik, sintaktik, uslubiy normalariga mos ravishda bayon qilinishi kerak. Ammo oradan ancha vaqt o‘tganiga qaramay, bu xususdagi vaziyat ko‘ngildagiday emas. Da‘volarimiz quruq chiqmasligi uchun bir qancha namunalarni keltirsak. Dastlab oziq-ovqat mahsulotlari yo‘riqnomalarida mavjud bo‘lgan lisoniy qorishqliklar haqida to‘xtalaylik:

O‘zbekiston mahsuloti bo‘lgan “Osiyo” konservali dimlangan go‘sht quyidagi interferensiyali tarjimaga e‘tibor qaratsak:

Изготовлено по рецепту в соответствии с ГОСТ 5284-84 с соблюдением требований европейского сообщества по чистоте и качеству — 5284-84 GOST asosida tayyorlangan. Tozalik va sifatida ovro‘pa birlashmasining talabiga amal qilingan. Bu gapning tarjimasi muvaffaqiyatsiz chiqqani grammatik me‘yor, so‘z tartibi, so‘zlarning o‘zaro mantiqsiz bog‘langani, jumlaning g‘alizligidan sezilib turibdi. Ba‘zan tarjimada so‘zma-so‘z tarjima o‘z mahsulini bermasligi mumkin. **Yevropa Ittifoqi standartlariga javob beruvchi 5284-84 nomerli davlat standartiga asosan tayyorlangan** deb tarjima qilinsa, gap tilimizning sintaktik tabiatiga mos kelgan va tushunarli bo‘lar edi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan “PUREMILKY WORKS” xususiy korxonasining smetana mahsulotlari yo‘riqnomasida mahsulotning saqlanilishi haqidagi yo‘riqnomada quyidagi holatni kuzatish mumkin:

Хранить – 10 суток при температуре 4±2°C – Saqlansin 4±2°C haroratda 10 kun. Bir qarashda mahsulotni saqlash yo‘riqnomasida hech qanday xato yo‘qdek tuyuladi. O‘zbek tilida gap bo‘laklarining tartibida ko‘pincha ega bilan aniqlovchi gap boshida hol bilan to‘ldiruvchi kesimga bog‘langan holda gap oxirida keladi. Rus tilida ega kesim gap boshida ikkinchi darajali bo‘laklar keyin holati ko‘pincha kuzatiladi. Shunday ekan, yuqoridagi holatda **Хранить – 10 суток при температуре 4±2°C – 4±2°C haroratda 10 kun davomida saqlansin** tarzida tarjima qilinsa, grammatik interferensiyaning oldi olinar edi.

Ishlab chiqaruvchini manzili: *Alexandro Street. Yangi Zelandiya*. Adresni bunday g‘aroyib shaklda yozish ham ishlab chiqaruvchining emas, balki mahalliy qadoqlovchi firmaning ma‘rifati bo‘lsa kerak, bu holda interferentiv jumla qurishdan ziyoda befarqlik, iste‘molchiga bepisandlik ko‘rinib turibdi.

Ukraina mahsuloti bo‘lgan tvorog ta‘mli “33 korovi” pechenesi yo‘riqnomasida bir qancha imloviy va interferensiv xatoliklar mavjudligini kuzatildi:

(UZ) PEChENE “33 KOROV” TVOROG TA‘MLI. *Tarkibi: bug‘doy uni, margarin hidsizlantirilgan palma yog‘i, ichimlik suvi, osh tuzi, emulgatorlar, bo‘yoq, qaymoq aromatizatori, konservant, nordonlik rostlagichi, shakar, melanj, invert qiyom, makkajo‘hori uni, razrixlitel, ziqaviy osh tuzi, quruq sut, tabiiyga xos aromatizator.*

Xavo harorati (18±5) °C da, xavoning nisbiy namligi 75 % dan yuqori bo‘lmagan sharoitda saqlansin.

birinchidan, makkajo‘xori – makkajohori, ozuqaviy -oziqaviy, havo –xavo kabi imloviy xatolar;

ikkinchidan, PECHENYE “33 KOROV” TVOROG TA‘MLI – ПЕЧЕНЬЕ “33 КОРОВЫ” БКУС ТВОРОЖКА bu o‘rinda rus tilining tizimidagi so‘z tartibi o‘zbek tiliga mos tushmagani bois uslubiy g‘alizlik kelib chiqqan. *Tvorog ta‘mli “33 sigir” pechenyesi* tarzida tarjima qilinishi kerak.

Grammatik va leksik interferensiya sababli quyidagi gap umuman noto‘g‘ri yozilgan: Ishlab chiqarilgan sanasi qadog‘iga qarang – *Дата изготовления и конечный срок годности указаны на упаковке*. Bu gap quyidagicha tarjima qilinishi kerak edi: **Ishlab chiqarilgan sana va amal qilish muddati qadoqda ko‘rsatilgan.** “*Ishlab chiqarilgan sanasi qadog‘iga qarang*” gapi tilning hech bir sathining andozasiga mos tushmaydi.

Internetdagi onlayn tarjima servislariga o‘zbek tili ham kiritilganiga ham ancha bo‘lib qoldi. Import firmalari ehtimol shu tarjima servislari xizmatidan foydalanib, bunday mazmunsiz yo‘riqnomalar tayyorlayotgandir? Internet manbalaridagi tarjimasidan foydalanish mumkin, lekin uning interferentiv ba‘zi bir kamchiliklarni tuzatgan holatda va so‘z, shakli, gap qolipini o‘zbekchallashtirgan holda, albatta. Masalan, bir tovarning yorlig‘ida uchragan *Krujok vyazaniya – to‘qish doirasi* shaklidagi g‘alati nom Google translate servisida tarjima qilib ko‘rildi, natija yorliqdagi ifoda bilan aynan bir xil chiqdi. Malakali tarjimon xizmatidan qochib, onlayn tarjima servisi xizmatidan foydalanish bir tarafdin ana shunday be‘mani va kulgili xatolarga olib kelsa, ikkinchi tomondan u davlat tiliga va bu tilda gaplashuvchi, mamlakatning 92 foiz nufuzini tashkil etadigan xalqqa nisbatan ochiqdan ochiq hurmatsizlikdir.

Har bir inson hayoti uchun oziq-ovqat mahsulotlaridan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega bo‘lgan dori-darmonlarni qo‘llash, ishlatish bilan bog‘liq me‘yoriy

hujjatlar (yo'riqnomalar, qo'llanish tavsiyanomalari) yanada vahimali ahvolda ekanligini ta'kidlab o'tish kerak. Quyidagi namunalarga diqqat qilaylik:

“Nimesulid Nika” dori vositasida quyidagi holatni kuzatish mumkin:

- Реже вызывает побочные эффекты, связанные с угнетением синтеза Pg в здоровых тканях – *Kam hollarda sog'lom to'qimalarda Pg ishlab chiqarishini susayishi bilan bo'lgan nojo'ya samaralarni chaqiradi.*

Samara so'zi arabchadan olingan bo'lib, biror-bir ishdan olingan natija, hosil, meva degan ma'nolarni bildiradi. *Ijodiy mehnat samarasi. Mehnat samarasini oshirish.*

Samara so'zi nojo'ya leksikasi bilan valentlik hosil qilmaydi. Biron-bir kasallikni yengishda samarali ta'sir o'tkazadi deyilsa bo'ladi. Bu tarjimada **nojo'ya oqibatlarni keltirib chiqaradi, nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqaradi** deb tarjima qilinsa, to'g'ri bog'langan so'z birikmasi hosil bo'ladi.

Для уменьшения риска возникновения нежелательных риска возникновения нежелательных побочных эффектов следует использовать минимальную эффективную дозу – Nojo'ya samaralar paydo bo'lish xavfini kamaytirish uchun eng kichik samarali dozani qabul qilish kerak.

“IN GRIP” dori vositasining yo'riqnomasida:

Ishlab chiqaruvchi: “Nova Pharm” MCHJ QK, O'zbekiston, Surxondaryo vil., Sofi Olloyor ko'ch., 10 burilish, 2 manzilgoh.

- Nojo'ya samaralar bo'lganda preparatni bekor qilish lozim — *При появлении серьёзных побочных эффектов препарат следует отменить* (Nojo'ya ta'sirlar sezilganda dori vositasini to'xtatish lozim)

- Ko'zni qizarishi, qon bosimni oshishi, og'izni qurishi, faoliyatni bizilishi, diqqatni pasayishi, faollikni oshishi, protrobin vaqtini oshishi, jigarni shikastlanishi kabi so'z birikmalarida hokim bo'lak tarkibida -i 3-shaxs egalik qo'shimchasi o'zidan oldin tobe bo'lak tarkibida qaratqich kelishigini (-ning) talab qiladi. Bu yerda esa tushum kelishigi ko'rsatkichi (-ni) noto'g'ri qo'llangan.

“Mersipozmolgon” dori vositasining yo'riqnomasida:

Ishlab chiqaruvchi: “MERRYMED” MCHJ O'zbekiston, Namangan vil., Namangan tumani, Sherbuloq ko'chasi, 1-uy.

- Jigardagi metobolizmni buzadi va uning toksikligini oshiradi – *Нарушает метаболизм в печени и повышает его токсичность.* Bu gapda toksikligini so'zi bemorga notanish tuyuladi. Chunki toksiklik degan so'z o'zbek tilining izohli lug'atida uchramaydi. Faqat toksin so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: o'zi grekcha so'z bo'lib, bizning lug'atimizga rus tili orqali kirib kelgan, biologiya, meditsinaga oid so'z. Ba'zi mikroorganizmlar, shuningdek, ba'zi hayvon va o'simliklar chiqaradigan zaharli moddalarning umumiy nomi deb yozilgan. Shunga muvofiq

yuqoridagi tarjimada toksin chiqarishni yoki zaharli moddalar chiqarishni oshiradi desak, to'g'ri tarjima qilingan bo'ladi va leksik interferensiyaga yo'l qo'yilmaydi.

5.

Xullas, kishilarning kundalik hayotda ko'p qo'llanadigan farmatsevtik vositalar, dori-darmonlar, siroplar, ukollar va hokazo yo'riqnomalaridagi interferentiv xatoliklarning ko'pligi xuddi oziq-ovqatlar yo'riqnomalaridagiday, pala-partish, **nomiga davlat tiliga tarjima qilingan, qo'pol ma'naviy, morfologik, sintaktik interferentiv xatolar mavjud**. Bu esa o'sha yo'riqnomalarga asosan davolash, emlash va reabilitatsiya muolajalarini olib borishni amalda ilojsiz qilib qo'yadi. Hozirda sog'liqni saqlash va dorixonalar tizimida rus tilini biladigan xodimlar borligi muammoning o'tkirligini bildirmay turibdi. Ular tibbiy xizmat ko'rsatilishiga muhtoj kishilarga dori-darmonlarni qo'llash bo'yicha og'zaki ko'rsatmalar berib, xato, saviyasiz va tushunarsiz yo'riqnomalar masalasini hozircha sal yumshatib turibdi. Ammo, so'zsiz, bu masala keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqilishi, muhokama etilishi hamda davlat tilida yuqori saviyada, dorilarning farmatsevtik xususiyatlarini va ularni qabul qilish hamda qo'llash yo'riqnomalari bilan ta'minlamaydigan dori-darmon ishlab chiqaruvchilar, chet eldagi farmatsevtik firmalarning dilerlik shu'balariga iste'mol bozorida faoliyat olib borishiga cheklovlar kiritilishi kerak.

6.

Shuningdek, bir fikr doim miyamga sanchilgan o'q kabi tafakkurimdan ketmaydi. Nega o'zbek tilining dunyoda yashash huquqi, davlat tili sifatida amal qilinishi qonunan kafolatlangan yagona siyosiy-ma'muriy hudud – O'zbekistonda o'zbek tilida xatolar, kamchiliklar bilan gapirish, yozish, hatto jamiyat va xalq hayotining eng dolzarb jabhasi – oziq-ovqat xavfsizligi hamda farmatsevtik xavfsizlik kabi sohalarda ham tilga va uning egalariga bepisand muomalada bo'linadi? Nega? Germaniyada ishlab chiqarilgan dori darmonning rus tilidagi yo'riqnomasida birorta na imloviy, na uslubiy va interferentiv xatolar uchramaydi. Shu bir parcha qog'ozning o'zbek-kirill yoki o'zbek-lotin yozuvida yozilgan qismiga ko'z yugurtirsangiz, buning tom aksini ko'rasiz.

Kamina Turkiya Respublikasi universitetlaridan birida ishlab yurganimda ba'zan import qilingan dori-darmonlarning turkcha va inglizcha yo'riqnomalarini qarshilashtirib ko'rar edim. Turkcha va inglizcha yo'riqnomalarda bir-ikki o'rinda ozroq ma'naviy farq bo'lmasa, jiddiy farqlar yo'q edi... Chunki na turk hukumati, na turk xalqi turk tiliga bepisand munosabatda bo'lishga, unda ko'ngli istaganday xato bilan yozishga hech ham tahammul qilmaydi... Biz-chi?

7.

Xulosa. Huznli fikr va sezintilarga to'la ushbu maqolani Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yilda "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinishining

30 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan yig'ilishdagi so'ylagan nutqidagi ushbi jumlar bilan tugatishga jazm qildim. Zero, davlatimiz rahbarining ona tilimiz taqdiri va kelajagi uchun kuyinib aytgan ushbu so'zlari bugun unga bepisand munosabatda bo'layotgan, insonlarning hayotiy manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgan hujjatlarni Google transleyt servisi bilan "yasab", tovar bilan qo'shib iste'molchiga taqdim etayotganlarga munosib javobdir: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin.

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar.

O'tmishda o'lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, dinu diyonatimizdan judo qilishga qayta-qayta urindilar. Ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma'lum.

Ammo jasur va matonatli xalqimiz har qanday og'ir sinovlarda ham o'z ozodligi va istiqloli uchun mardona kurashdi. Bu yo'lda behisob qurbonlar berdi. Har qanday zulm va zo'ravonliklarga qaramasdan, o'z ona tilini – milliy g'ururini saqlab qoldi. Nafaqat saqlab qoldi, balki uni har tomonlama rivojlantirib, bugungi avlodlarga bezavol yetkazib berdi" (Халқ сўзи, 2019-йил, 22-октябрь).

Foydalanilgan adabiyotlar

Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // *Халқ сўзи*, 2019-йил, 22-октябрь.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-son Farmoni – <https://lex.uz/docs/-4561730> (26.09.2025)

O'zR Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son Qarori. Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. <https://lex.uz/docs/-4640226> (2025.26.09)

Bromham L., Dinnage R., Skirgård H., et al. (2022). *Global predictors of language endangerment and the future of linguistic diversity*. Nature Ecology & Evolution 6 2022.

Coleman, Hywel. *National Identity, Education and Language: An Introduction*. National Development, Education and Language in Central Asia and Beyond . Edited by Hywel Coleman, Jamilya Gulyamova and Andrew Thomas. Edited proceedings of the 6th International Language and Development Conference: 'Linguistic Challenges to National Development and International Co-operation' -https://www.academia.-edu/705480/National_Development_Education_and_Language_In_Central_Asia_and_Beyond (2025.26.09)

Kantarovich, Jessica, Grenoble, Lenore A., Vinokurova Antonina A., Nesterova Elena V. (2021). *Complexity and simplification in language shift*. *Frontiers in Communication*. <https://www.frontiersin.org/-journals/communication/articles/10.-3389/fcomm.2021.638118/-full> (2025.26.09)

Rasulova I. (2020). *Interferensiya va uning til o'rganish jarayoniga salbiy ta'siri*. Научный вестник QDPI. Том1.No1.

Toshboyev O. (2025). *Sheva va adabiy til o'rtasiga o'tib bo'lmas devorni kim, qachon tiklagan?!* <https://oyina.uz/uz/article/>.